

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI**

**2016 – 2017-O'QUV YILIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM  
MAKTABLARINING 4-SINF O'QUVCHILARI UCHUN  
ONA TILI, MATEMATIKA, JISMONIY TARBIYA  
FANLARIDAN BOSQICHLI IMTIHON MATERIALLARI  
VA METODIK TAVSIYALAR TO'PLAMI**

TOSHKENT – 2017

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika Ta’lim markazi huzuridagi “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy-metodik kengashning 4-son yig‘ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

### **Ona tili va matematika**

**Tuzuvchilar:**

**Nazira Ahmedova** – RTM boshlang‘ich ta’lim bo‘limi boshlig‘i;

**Albina Sadikova** – Nizomiy nomidagi TDPU dosenti, p.f.n.;

**Sattor Burxonov** – Toshkent shahar 200-maktab o‘qituvchisi, f.-m.f.n.;

**Aslonova Nilufar** –Toshkent shahar 160-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

**Taqrizchilar:**

**M.Jumayev** – Nizomiy nomidagi TDPU proffesori, p.f.n.;

**M.Yusupova, M.Qodirova** – RTM “Boshlang‘ich ta’lim” bo‘limi bosh metodistlari;

**N.Yusupova** – Toshkent shahar ...?–maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Imtihon materiallarini ko‘paytirib tarqatish ta’qiqlanadi.

## **ONA TILI**

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda imlo savodxonligini tarkib toptirishdir. Ushbu vazifa yozma ishlar, xususan, diktant orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilarning imlo va ishoraga oid savodxonligini aniqlashda diktantning o‘rni muhim bo‘lib, ta’lim samaradorligi mavzu va uning mazmuni, maqsadining aniqligi hamda metodning izchilligiga ko‘ra belgilanadi.

2016-2017 o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim maktablari 4-sinf o‘quvchilari bosqichli imtihonda ona tili fanidan grammatik topshiriqli diktant yozadilar.

Nazorat materiallari variantlar ko‘rinishida oldindan ko‘paytirilib, 7 ta konvertga solinadi va maktab rahbariga 15-aprelgacha topshiriladi.

### **Diktantni o‘tkazish tartibi**

O‘quvchilarning imtihonga hozirligi ko‘zdan kechirilgach, o‘qituvchi o‘quvchilar e’tiborini jalb qilgan holda diktant matnini bir marta ifodali o‘qib beradi. Matnni talaffuz me’yorlariga rioya qilib ifodali o‘qish, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yishga va matnning mazmunini hamda tarbiyaviy ahamiyatini o‘quvchilar ongiga singdirishga yordam beradi. Shundan so‘ng o‘qituvchi yozuv taxtasiga, o‘quvchilar esa o‘z daftarlariiga sana va sarlavhani tartib bilan har birini xatboshidan yozadilar. O‘qituvchi matndagi gaplarni aytib turadi, o‘quvchilar yozadilar. Shuni ta’kidlash zarurki, so‘zni bo‘g‘inlab yoki so‘zma-so‘z aytib turish mumkin emas. Har bir gap, so‘z birikmasi ko‘pi bilan uch marta takrorlanishi mumkin. Matnda o‘quvchilar yozishi qiyin bo‘lgan yoki o‘rganilmagan qoidalar asosida yoziladigan qiyin so‘zlar uchrasa, o‘qituvchining yozuv taxtasiga yozib berishi talab etiladi. Yozuv taxtasiga yozib beriladigan bunday so‘zlar ikki yoki uchtadan oshmasligi kerak. Diktant yozib bo‘lingach, o‘quvchilar diqqatini jalb qilgan holda o‘qituvchi matnni sekinroq sur’at bilan yana bir marta o‘qib beradi. O‘quvchi o‘z xatosini topsa, uni to‘g‘rilashiga yoki tushirib qoldirilgan so‘zni yozishiga imkon beriladi. So‘ng o‘quvchilar yozganlarini yana bir marta ichida o‘qib tekshiradilar. Shundan so‘ng grammatik topshiriqlarni mustaqil ravishda o‘zları bajaradilar.

### **Grammatik topshiriqlar quyidagi yo‘nalishlarda bo‘ladi:**

1. Fonetik tahlil.
2. So‘z tarkibiga ko‘ra tahlil.
3. So‘z turkumlari yuzasidan tahlil.
4. Gap bo‘laklari yuzasidan tahlil.
5. Leksik tahlil.

### **Diktantni baholash**

Nazorat diktantida o‘quvchilar imlo xatolariga yo‘l qo‘ymasliklari, tinish belgilarini to‘g‘ri ishlatalishlari, bo‘g‘in ko‘chirish qoidalalariga rioya qilishlari, husnixatlarining talab darajasida bo‘lishi, matnda xatboshilarga rioya qilishlari, grammatik topshiriqlarni mustaqil bajarishlari kerak bo‘ladi.

***Har bir o‘quvchining BKM larini tekshirishda quyidagilarga e’tibor beriladi:***

1. Imloviy savodxonlik darajasi.
2. Tinish belgilarining to‘g‘ri ishlatalishi.
3. Xatboshilarga rioya qilinishi.
4. Fonetik tahlil.
5. So‘z tarkibiga ko‘ra tahlil.
6. So‘z turkumiga ko‘ra tahlil.
7. Gap bo‘laklariga ko‘ra tahlil.
8. Leksik tahlil.
9. Yozuvning husnixat talablariga mosligi.
10. Diktant matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

Bosqichli imtihonda grammatik topshiriqli diktant ona tili fanidan DTS va o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida belgilangan har bir topshiriq 5 ball bilan baholanadi. Umumiylar soniga bo‘linadi va umumiy baho sinf jurnaliga qo‘yiladi.

**Izoh:** Nazorat diktanti matnini maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari 15% hajmida boshqa matn bilan almashtirish huquqiga ega. Bu matnlar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari metodbirlashmasi hamda maktab rahbariyati tomonidan tasdiqlanishi shart.

O‘qituvchi tomonidan tanlangan grammatik topshiriqli nazorat diktant matni Vatan, mustaqillik, milliy istiqlol g‘oyalari, do‘slik, odob-axloq, ahillik, hurmat, kamtarlik, e’tiborlilik kabi fazilatlar, tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan mavzularga oid bo‘lib, o‘quvchilarning savodxonligini oshirish bilan birga, bilim doirasini kengaytirishga xizmat qilishi lozim. Matn tanlashda quyidagilarga e’tibor beriladi:

- matn bir shaxs tilidan ifoda etilgan bo‘lishi;
- matnda ko‘chirma, qo‘shma gaplar, qo‘shma so‘zlar, kirish so‘z va birikmalar bo‘lmagligi;
- matn 2-3 xatboshidan va 75-80 so‘zdan iborat bo‘lishi;
- ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi;
- o‘rganilmagan qoidalarga doir til birikmalarining ishtirok etmasligi.

### **Do‘ppi**

Bir kuni Nozimjonning onasi unga chiroqli do‘ppi olib berdi. Nozimjon do‘ppini kiyib, maydonchaga chiqdi. Uni o‘rtog‘i Ravshanjon kutib turgan edi.

Ikki o‘rtoq o‘ynay boshladilar. Biroq Ravshanjon Nozimjonning do‘ppisiga havas bilan qarab-qarab qo‘yar edi. Buni o‘zi bilmasdi. Ammo Nozimjon sezardi.

O'rtoqlar uylariga qaytishdi. Nozimjon onasiga do'ppini kiymasligini aytdi. Uni boshidan olib qo'ydi. So'ng onasiga bunday do'ppi o'rtog'i Ravshanda yo'qligini aytdi. Ertasi kuni Nozimjonning onasi Ravshanjonga ham shunaqa do'ppi olib berdi. Ikki o'rtoq xursand bo'lidi. (75 so'z)

### **Grammatik topshiriqlar**

"Do 'ppi" so 'zini fonetik tahlil qiling.

"Maydonchaga" so 'zini so 'z tarkibiga ko 'ra tahlil qiling.

"Ikki o'rtoq o'ynay boshladilar" gapini so 'z turkumi yuzasidan tahlil qiling.

"Uni Ravshanjon kutib turgan edi" gapini gap bo 'laklari yuzasidan tahlil qiling

"Havas" so 'ziga ma 'nodosh so 'z toping.

### **Tez yordam**

Dilorom maktabdan kelayotgan edi. Terakning shoxida turgan Bahodirni ko'rib qoldi. U shoxga ilingan varakka qo'l uzatardi. Birdan shox sinib, Bahodir yiqilib tushdi. Dilorom qo'rqib ketdi, ko'z oldi qorong'ilashdi. Biroz vaqt o'tgach, o'ziga keldi. Bahodir esa behush yotardi. Uning peshonasi qonagan edi. Atrofda hech kim yo'q. Dilorom ro'molchasini Bahodirning peshonasiga yopib, o'zi Sharofat xolaning uyiga yugurdi.

Sharofat xola tez yordam chaqirdi. Bahodirni kasalxonaga olib ketishdi.

Dilorom uyiga keldi. Onasiga bo'lgan voqeani so'zlab berdi. Onasi qizidan xursand bo'lidi. (78 so'z)

### **Grammatik topshiriqlar**

1. "Behush" so 'zini fonetik tahlil qiling.

2. "Ro'molchasini" so 'zini so 'z tarkibiga ko 'ra tahlil qiling.

3. "Bahodir esa behush yotardi" gapini so 'z turkumi yuzasidan tahlil qiling.

4. "Onasi qizidan xursand bo'lidi" gapini gap bo 'laklari yuzasidan tahlil qiling

5. "Xursand" so 'ziga ma 'nodosh so 'z toping.

### **Quyosh sevgan yurt**

Quyosh moviy tog'lar ortidan bosh ko'taribdi. Bog'dagi rangorang gullar unga salom berishibdi. Daraxtlar shoxida qushlar chuldirab sayrabdi. Yaproqlar quyoshni olqishlabdi. Butun olam uning saxiy nuridan bahramand bo'libdi.

Ko'hna Turonzaminda insonlar qalbini yorituvchi quyoshlari bor. Bular Amir Temur, Ibn Sino, Imom al-Buhoriy, Ahmad Yassaviy, Ulug'bek, Navoiylar!

Bu yurt mustaqil yurt! O'ziga xon, o'ziga bek yurt! Bu yurtning odamlari juda mehnatkash! Ular har yili umid bilan nihol ekishadi. Men ularni parvarishlayman. Qizil olmalarda o'z aksimni ko'rganday bo'laman. (78 so'z)

### **Grammatik topshiriqlar**

1. O'n ikkinchi gapni gap bo 'laklariga ko 'ra tahlil qiling.

2. "Gul" so 'ziga asosdosh so 'zlarni toping.

3. ..... gapini so 'z turkumi yuzasidan tahlil qiling

4. "Quyosh" so 'zini fonetik tahlil qiling.

5. "Yaproq" so 'ziga ma 'nodosh so 'zni toping.

## **Kiyimlar nimalardan tikiladi?**

Kiyimlaringizga razm soling. Ular qanday matolardan tikilgan? Matolar tolalardan, tolalar esa paxtadan hosil bo‘ladi. Paxta tolalaridan tayyorlangan matolar ip-gazlamalar deb ataladi. Chit, satin, bo‘z, doka va boshqa matolar paxta tolalaridan to‘qiladi.

Ipak matolar pilla tolalaridan olinadi. Shoyi, atlas, krepdeshin kabi matolar esa ipak tolalaridan toqiladi. Jun matolar esa qo‘y-qo‘zi, echki, tuya kabi hayvonlarning junidan olingan iplardan tayyorlanadi. Shuningdek, sun`iy tolalardan ham matolar to‘qiladi. Paxta, ipakdan olingan matolar narxi qimmat bo‘ladi. Ular inson salomatligi uchun foydalidir. Bolalar, egningizdagи kiyimlarni hamisha toza tuting. (86 ta so‘z)

### **Grammatik topshiriqlar:**

1. “**Ipak**” so‘zini fonetik tahlil qiling.
2. “**Foydali**” so‘zini so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qiling.
3. “**Ipak matolar pilla tolalaridan olinadi**” gapini so‘z turkumi yuzasidan tahlil qiling.
4. “**Ular qanday matolardan tikilgan?**” gapini gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling.
5. “**Toza**” so‘ziga ma’nodosh so‘zlar tanlang.

## **Sport sog‘liq garovidir**

Sport sog‘liqni mustahkamlaydi. Har bir kishi sport bilan shug‘ullanishi kerak. O‘g‘il bolalar sportning futbol, kurash, boks turlari bilan shug‘ullanishni yaxshi ko‘radilar. Qiz bolalar esa ko‘proq gimnastika, tennis va sportning suvda suzish turini tanlaydilar. Aytgandek, shaxmat va shashka ham sport o‘yinlari. Ko‘chada bekinmachoq, quvlashmachoq o‘ynaganda siz yugurasiz. Arqon o‘ynaganda sakraysiz. Bunday o‘yinlarni o‘ynash sog‘liq uchun juda foydalidir. Shunda tana a’zolaringiz o‘sadi, baquvvat bo‘ladi. Shuning uchun sportni seving! Sportning biror turi bilan doimo shug‘ullaning! Chunki, sport sog‘liq uchun foydalidir. (80 ta so‘z)

### **Grammatik topshiriqlar**

1. “**Futbol**” so‘zini fonetik tahlil qiling.
2. “**Suvda**” so‘zini so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qiling.
3. “**Sport sog‘liqni mustahkamlaydi**” gapini so‘z turkumi yuzasidan tahlil qiling.
4. “**Ko‘chada bekinmachoq, quvlashmachoq o‘ynaganda siz yugurasiz**” gapini gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling.
5. “**Baquvvat**” so‘ziga ma’nodosh so‘z toping.

## **Suv haqida nimalar bilasiz?**

Suv bebahoy boylik. Suvsiz hayot bo‘lmaydi. Suv daryolardan oqib keladi. Buxoro viloyati hududida daryo yo‘q. Bu yerga suv kanallar yordamida keltiriladi. Shuning uchun har yili ariqlar, kanallar hashar yo‘li bilan tozalanadi.

Ba’zilar jo‘mraklarni ochiq qoldiradilar. Bu ish noto‘g‘ri. Chunki suvni isrof qilish gunoh! Boyligimiz bo‘lgan suvni tejang. Uning isrof bo‘lishiga yo‘l qo‘ymang.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti 22-mart kunini “Xalqaro ichimlik suvi kuni” deb e’lon qilgan. Bolalar, bu kunni siz ham o‘z hissangizni qo‘shgan holda nishonlashga harakat qiling. (80 ta so‘z)

### **Grammatik topshiriqlar:**

1. **“Kanal”** so‘zini fonetik tahlil qiling.
2. **“Suvsiz”** so‘zini so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qiling.
3. **“Suvsiz hayot bo‘lmaydi”** gapini so‘z turkumi yuzasidan tahlil qiling.
4. **“Ba’zilar jo‘mraklarni ochiq qoldiradilar”** gapini gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling.
5. **“Boylik”** so‘ziga ma’nodosh so‘zlar tanlang.

## **Favvoralar**

Favvoralar yozning issiq kunlarida o‘zining muzdek suvi va toza havosi bilan insonlarga orom baxsh etadi.

Qadim zamonlarda ham saroylarda favvoralar bo‘lgan. Samarqand atroflarida Amir Temur barpo etgan Dilkusho bog‘ida favvara bo‘lgan. Ispaniya elchisi bu favvoraga havas qilgan. U favvoradan qizil olmalar qalqib chiqqanligini o‘z xatida tasvirlagan. Xalqimiz, ajdodlarimiz yaratgan mo‘jizaviy san’at namunalarini juda chiroyli ekanligini tarixchilar o‘z asarlarida yozishgan. Musavvirlar esa rasmlarini chizishgan.

Toshkentda Mustaqillik maydoni, Temuriylar tarixi davlat muzeyi va Alisher Navoiy nomli milliy kutubxona atroflarida zamonaviy favvoralar qurildi. (82 so‘z)

### **Grammatik topshiriqlar:**

1. **“Qurildi”** so‘zini fonetik tahlil qiling.
2. **“Elchisi”** so‘zini so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qiling.
3. **“Favvoralar yozning issiq kunlarida o‘zining muzdek suvi va toza havosi bilan insonlarga orom baxsh etadi.”** gapini so‘z turkumi yuzasidan tahlil qiling.
4. **“Qadim zamonlarda ham saroylarda favvoralar bo‘lgan”** gapini gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling.
5. **“Toza”** so‘ziga ma’nodosh so‘z toping.

## **Tut ko‘chati**

Bahor. Ko‘chat ekishning ayni vaqt edi. Men tut ko‘chati ekishni orzu qilardim. Shuning uchun buvimplardan ko‘cha eshik oldiga tut ko‘chati ekishni iltimos qildim.

Ertasi kuni buvim va men bozorga bordik. Buvim ikkita tut ko‘chatini tanladilar. Uni uyga olib keldik. Men o‘rtoqlarimni chaqirdim. Buvim bolalarga tut ko‘chati ekishni o‘rgatdilar. U hosilga kirgach, mahalladagi bolalarni mehmon qilmoqchi bo‘ldilar. Bolalar sevinib ketishdi. Ular tezda ishga tushdilar. Hash-pash deguncha chuqurcha paydo bo‘ldi. Bolalarning biri suv quydi, boshqasi tuproq tortdi.

Yillar o‘tdi. Tut ko‘chati hosilga kirdi. (82 so‘z)

### ***Grammatik topshiriqlar***

1. “*Bahor*” so‘zini fonetik tahlil qiling.
2. “*O‘rtoqlarimni*” so‘zini so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qiling.
3. “*Buvim bolalarga tut ko‘chati ekishni o‘rgatdilar*” gapini so‘z turkumi yuzasidan tahlil qiling.
4. “*Uni uyga olib keldik*” gapini gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling
5. “*Sevinib*” so‘ziga ma’nodosh so‘z toping.

## **Matematika**

### **O‘qituvchilar diqqatiga**

4-sinfda bosqichli imtihon o‘tkazishning asosiy maqsadi – boshlang‘ich mактабнинг rivojlanish bosqichida o‘quvchilarning boshlang‘ich matematik tayyorgarlik davrida erishgan natijalarini aniqlashdan iborat.

4-sinfda matematikadan bosqichli nazorat yozma ravishda o‘tkaziladi. Nazorat materiallari variantlar ko‘rinishida oldindan ko‘paytirilib, konvertlarga solinadi va mактаб direktoriga 1–maygacha topshiriladi. Mактab metodbirlashmalari imtihon variantlariga 20 % hajmda o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin. Bosqichli nazoratda o‘quvchilar bir necha varaq toza qog‘oz, chizg‘ich va ruchka (qalam) olib keladilar. O‘qituvchi o‘quvchilarni qator bo‘yicha variantlarga bo‘lib chiqadi. So‘ngra har bir qatordan bir o‘quvchi chiqib stolga teskari qilib qo‘yilgan varaqlardagi variantlardan birini oladi. Shu qatordagi barcha o‘quvchilarga ko‘paytirilgan variantlar tarqatiladi. Variantlar tarqatilgandan so‘ng o‘qituvchi zaruriy tushunchalar beradi va vaqtini belgilab doskaga yozib qo‘yadi. Yozma ishni o‘tkazish uchun 45 daqiqa vaqt ajratiladi. Bu davrda o‘quvchilar masalani yechish, hisoblash ishlari, tenglamalarni yechish va boshqa topshiriqlarni yozma tarzda bajaradilar. O‘quvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari (BKM) har bir variantda keltirilgan. Har bir BKM elementi 5 ballik tizimda baholanadi. So‘ng 5 ta topshiriq bo‘yicha to‘plangan

ballar jamlanib, 5 ga bo‘linadi va yaxlitlanadi. Yaxlitlangan o‘rtacha ball imtihonning haqiqiy bali hisoblanadi va sinf jurnaliga qo‘yiladi.

### **1 – variant**

1. Masalani yeching:

Ikki aholi punktidan bir vaqtida qarama – qarshi yo‘nalishda ikkita traktor yo‘lga chiqdi. Birinchi traktoring tezligi 32 km/soat, ikkinchi traktoring tezligi 26 km/soat. Birinchi traktor 128 km yo‘lni o‘tgan vaqtida u ikkinchi traktordan necha kilometr uzoqlikda bo‘ladi?

2. Hisoblang:

$$1508 \cdot 98 + 53119 - (4085 - 34354 : 89)$$

3. Tenglamani yeching:

$$7 \cdot x + 125 = 293$$

4. Uzunligi 7 sm, eni undan 2 sm qisqa bo ‘lgan to‘g‘ri to‘rburchak chizing. So‘ng xuddi shunday perimetrali kvadrat chizing.

5. Ifodalarni yozing va ularning qiymatlarini hisoblang: 246 va 194 sonlar yig‘ndisini 127 va 83 sonlari ayirmasiga bo‘ling.

### **2–Variant**

1. Masalani yeching:

Bekatdan bir vaqtida qarama–qarshi yo‘nalishda ikkita avtomobil yo‘lga chiqdi. Birinchi mashina 68 km/soat, ikkinchisi 72 km/soat tezlik bilan yurdi. 6 soatdan so‘ng ular oralig‘i necha kilometr bo‘ladi?

2. Hisoblang:

$$(13323 - 3425) : 49 + (5142 + 3786) : 62 \cdot 315$$

3. Tenglamani yeching:

$$680 - x + 340 = 344$$

4. To‘g‘ri to‘rburchakning bo‘yi 70 mm bo‘lib, eni esa undan 4 sm qisqa. To‘g‘ri to‘rburchakning perimetri va yuzini toping.

5. Ifodalarni yozing va ularning qiymatlarini hisoblang: 246 va 194 sonlar ko‘paytmasini 922 va 888 sonlari ayirmasiga qo‘shing.

### **3 – variant**

1. Masalani yeching:

Tegirmonga bir xil qoplarda 2730 kg bug‘doy va huddi shunday qoplarda 1890 kg arpa keltirildi. Bug‘doy arpaga nisbatan 12 qop ko‘p keltirildi. Necha qop bug‘doy va necha qop arpa keltirildi?

2. Hisoblang:

$$(14688 : 36) \cdot 1102 - 407 + 4992 : 16$$

3. Tenglamani yeching:

$$190 - 92 : x = 186$$

4. To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi 164 mm bo‘lib, enining uzunligi bo‘yining chorak qismiga teng. To‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri va yuzini toping.

5. Qavsni shunday qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

$$64 - 8 \cdot 6 : 2 = 8$$

#### **4 – variant**

1. Masalani yeching:

Tikuvchi 2 kunda 18 ta fartuk tikdi. U birinchi kun 20 m, ikkinchi kun esa 16 m gazlama sarfladi. Tikuvchi birinchi kun nechta fartuk tikkani? Ikkinci kunchi?

2. Hisoblang:

$$(5142 + 3786) : 62 \cdot 306 + (13323 - 3425) : 49$$

3. Tenglamani yeching:

$$960 : x + 986 = 1002$$

4. To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi 15 sm, eni esa 3 sm qisqa. To‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri va yuzini toping. Tushirib qoldirilgan amal ishoralarini qo‘ying:

5. Qavsni shunday qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

$$32 - 28 : 6 + 8 = 30$$

#### **5 – variant**

1. Masalani yeching:

Poyezdga 756 ta chipta sotildi. Yo‘lovchilarning bir qismi 9 ta kupeli vagonda, qolganlari esa 8 ta platskart vagonda joylashadigan bo‘ldi. Agar kupeli vagonning har biriga 36 kishi joylashsa, har bir platskart vagonda nechta yo‘lovchi joylashadi?

2. Hisoblang:

$$(5012 - 28 \cdot 65) : 12 + (360 - 60) : 3$$

3. Tenglamani yeching:

$$630 : x + 80 = 150$$

4. To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi 4 dm, eni esa undan 1 dm qisqa. To‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri va yuzini toping.

5. Qavslarni shunday qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

$$255 - 126 - 79 \cdot 9 = 450$$

#### **6 – variant**

1. Masalani yeching:

O'quvchilar bir maydondan 144 kg, ikkinchi maydondan 90 kg sabzavot yig'ishtirib oldilar. Maydonlarning umumiyligi yuzi  $78 \text{ m}^2$ . Har bir maydonning yuzini toping?

2. Hisoblang:

$$50000 - (223 \cdot 89 + 14807 : 67)$$

3. Tenglamani yeching:

$$40 \cdot x - 90 = 350$$

4. To'g'ri to'rtburchakning eni 10 sm, bo'yisi esa enidan 7 marta katta. To'g'ri to'rtburchakning yuzi qanchaga teng?

5. Qavslarni shunday qo'yingki, tenglik to'g'ri bo'lsin:

$$56 : 2 + 6 \cdot 2 = 68$$

## 7 – variant

1. Masalani yeching:

To'qimachilik fabrikasi oldin 84 sr, keyin 108 sr paxta oldi. Hammasi bo'lib massasi bir xil bo'lgan 96 toy paxta keltirildi. Fabrika oldin necha toy va keyin necha toy paxta olgan?

2. Hisoblang:

$$600200 - 40082 : 98 + 2458 \cdot 26$$

3. Tenglamani yeching:

$$30336 : x + 537 = 921$$

4. Yer maydonining yuzi  $234 \text{ m}^2$ . Maydonning uzunligi 26 m. Yer maydonining perimetritini toping.

5. Qavslarni shunday qo'yingki, tenglik to'g'ri bo'lsin:

$$56 : 2 + 6 \cdot 2 = 4$$

## 8 – variant

1. Masalani yeching:

Do'konga televizor, magnitofon va radiopriyomniklar keltirildi. Ularning hammasi birgalikda 296 ta. Shulardan 78 tasi magnitofon, radiopriyomniklar esa magnitofonlardan 2 marta ko'p, qolganlari televizorlar. Do'konga nechta televizor olib kelingan?

2. Hisoblang:

$$(14688 : 36 + 4992 \cdot 16) - 407$$

3. Tenglamani yeching:

$$x \cdot 2 - 743 = 9447$$

4. Tomonlari 15 sm va 50 mm bo‘lgan to‘g‘ri to‘rburchakning perimetрини топинг.

5. Qavslarni shunday qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

$$360 : 3 + 6 \cdot 2 = 252$$

### **9 – variant**

1. Masalani yeching: Bir samolyot 2 soat, ikkinchisi esa 5 soat uchdi. Ikkinchisini samolyot birinchisiga qaraganda 2100 km ortiq masofani uchib o‘tdi. Agar samolyotning tezligi bir hil bo‘lsa, ularning har biri qanday masofani o‘tgan?

2. Hisoblang:

$$(13965 : 49 + 2638 \cdot 45) - 7908$$

3. Tenglamani yeching:

$$150 + 400 : x = 350$$

4. Yer maydonining yuzasi  $416 \text{ m}^2$ . Maydonning kengligi 16 m. Yer maydonining perimetрини топинг.

5. Qavslarni shunday qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

$$360 : 3 + 6 \cdot 2 = 80$$

### **10 – variant**

1. Masalani yeching:

Boqqa 300 tup olma va 200 tup olxo‘ri ko‘chatni ekildi. Har bir qatorga ko‘chat soni bir xil. Shunda olmalar olxo‘riga qaraganda 5 qator ortiq bo‘ldi. Necha qator olma va necha qator olxo‘ri ko‘chatlari ekilgan?

2. Hisoblang.

$$10100 - 43268 : 58 \cdot 6 + 3998$$

3. Tenglamani yeching:

$$x : 14 - 6045 = 5533$$

4. Ixtiyoriy to‘rtburchak chizing. Unda ikkita kesmani shunday chizing–ki, natijada 3 ta uchburchak hosil bo‘lsin.

5. Qavslarni shunday qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

$$360 : 3 + 6 \cdot 2 = 24$$

*Ixtisoslshgan sinflar uchun*

### **1–Variant**

1. Hisoblang:

$$800110 - 11520 : 144 + 1889 \cdot 79$$

2. Tenglamani yeching:

$$4 \cdot x + 378 = 8538$$

3. Masalani yeching:

Bozorga hammasi bo‘lib 1 t 190 kg nok va olma keltirildi. Mevalar har bir qutiga 14 kg dan bir xil miqdorda joylashgan. Olma solingan qutilar, nok solingan qutilarga nisbatan 17 taga ko‘p. Bozorga necha kilogramm olma keltirilgan?

4. Tomonlarining uzunligi 50 mm va 40 mm bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri va yuzasini hisoblang.

5. Qavslarni shunday qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

$$144 \cdot 29 + 552 : 24 - 168 = 29$$

## 2 – Variant

1. Hisoblang:

$$603200 - 123321 : 407 + 2854 \cdot 26$$

2. Tenglamani yeching:

$$x \cdot 28 - 2538 = 2670$$

3. Masalani yeching:

Fermer xo‘jaligida ekin maydonidan 726 sr bug‘doy hosili olindi. Jami hosilning uchdan bir qismi sotuvga chiqarildi. 127 sr bud‘doy urug‘lik uchun jo‘natildi. Fermerda qancha don qoldi?

4. To‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri 210 sm va bir tomonining uzunligi 46 sm ga teng. To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzini toping.

5. Qavslarni shunday qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

$$918 - 714 : 17 - 108 = 96$$

## 3–Variant

1. Hisoblang:

$$2503 - 5 + (150450 - 1875) : 75$$

2.Tenglamani yeching:

$$67 \cdot x = 8100 + 275$$

3.Masalani yeching:

Shaharlar oralig‘i 980 km bo‘lgan temir yo‘l vokzallaridan bir vaqtda bir–biriga qarab ikkita elektr poyezdi yo‘lga chiqib, 7 soatdan so‘ng uchrashadi. Birinchi poyezdning o‘rtacha tezligi 68 km/soat bo‘lsa, ikkinchi poyezdning tezligini toping.

4. Ekin maydonining yuzasi  $464 \text{ m}^2$ . Maydonning eni 16 m. Ekin maydonining perimetрini toping.

5.Qavslarni shunday qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

$$985 - 396 : 18 - 819 = 144$$

#### 4 –Variant

1.Hisoblang:

$$17328 : 16 + ( 825 \cdot 75 - 8458 )$$

2.Tenglamani yeching:

$$x : 570 + 297 = 354$$

3. Masalani yeching:

Ikki temir yo‘l vokzallaridan bir vaqtda bir–biriga qarab ikkita elektr poyezdi yo‘lga chiqib 9 soatdan so‘ng uchrashadi. Poyezdlardan birining tezligi soatiga 74 km. Agar vokzallar oralig‘i 1287 km bo‘lsa, ikkinchi poyezdning tezligini toping.

4. To‘g‘rito‘rburchak shaklidagi sport maydonchasining yuzasi  $1598 \text{ m}^2$ . Maydonchaning eni 34 m. Sport maydonchasining perimetрini toping.

5.Qavslarni shunday qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

$$144 \cdot 29 - 552 : 24 + 168 = 319$$

#### 5 – variant

1. Masalani yeching:

Bir oshxonaga bir hil qoplarda 150 kg, ikkinchi oshxonaga 90 kg don mahsulotlari keltirildi. Ikkinchi oshxonaga birinchidagidan 2 qop kam mahsulot keltirildi. Har bir oshxonaga necha qop don mahsulotlari keltirilgan?

2. Hisoblang:

$$800110 - 11520 : 144 + 1889 \cdot 79 + 7348$$

3. Tenglamani yeching:

$$765 : (x - 29) = 17$$

4. To‘g‘ri to‘rtburchakning eni bo‘yidan 3 marta qisqa bo‘lib, perimetri 36 sm. To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi va enini toping.

5. Qavsni shunday qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

$$84 - 12 : 6 + 6 = 7$$

## 6–Variant

1. Hisoblang:

$$(14688 : 36) \cdot 1102 - 407 + 4992 : 16$$

2. Tenglamani yeching:

$$3072 + x \cdot 8 = 3304$$

3. Masalani yeching:

Ikki aholi punktidan bir vaqtda qarama – qarshi yo‘nalishda ikkita velosipedchi yo‘lga chiqdi. Birinchi velosipedchining tezligi 30 km/soat, ikkinchi traktorning tezligi 26 km/soat. Birinchi velosipedchi 120 km yo‘lni o‘tgan vaqtda, u ikkinchi velosipedchidan necha kilometr uzoqlikda bo‘ladi?

4. To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi enidan 7 sm uzun bo‘lib, ularning yig‘ndisi 31 sm. To‘g‘ri to‘rtburchakning perimetrini toping.

5. Qavslarni shunday qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

$$2208 : 32 + 37 \cdot 43 - 976 = 400$$

## JISMONIY TARBIYA FANIDAN BOSQICHLI IMTIHON MATERIALLARI VA METODIK TAVSIYA

### Tushuntirish xati

Xalq ta’limi vazirligining tegishli buyrug‘iga asosan jismoniy tarbiya fanidan IV sinf o‘quvchilari amaliy va nazariy qismlaridan bosqichli nazorat imtihonlarini topshiradi.

Bosqichli nazorat imtihonini o‘tkazishdan asosiy maqsad, DTS va o‘quv dasturida berilgan mezon talablari asosida o‘quvchilarning olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashdir.

Bosqichli nazorat imtihonlarini talab darajasida o‘tkazish maqsadida 10 kun oldin məktəb sport məydonı (zali) və sport anjomları, imtihon materialları tayyorlab qo‘yilishi kerak.

Maktab direktorining buyrug'i bilan imtihonni qabul qilish kuni, hay'at a'zolari, qo'shimcha maslahat darslari va amaliy mashg'ulotlar jadvali tashkil qilinadi. Bosqichli nazorat imtihoni bo'yicha hay'at a'zolari tarkibi jami 3 kishidan iborat bo'lib, unga imtihon raisi (maktab direktori), imtihon qabul qiluvchi (jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi), assistent (yordamchi, jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi) kiradi. Shu bilan birga bosqichli nazorat imtihonning amaliy qismida tibbiy xodim bo'lishi shart.

Umumiy o'rta ta'lif maktabining sharoiti va mavjud sport anjomlaridan kellib chiqqan holda bosqichli nazorat imtihonining amaliy mashg'ulot biletlariga 25%gacha o'zgartirish kiritishlari mumkin. Shu bilan birga tibbiyot muassasalari tomonidan jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridan ozod etish to'g'risidagi ma'lumotnomaga ega bo'lgan o'quvchilar bosqichli nazorat imtihonidan ozod e'tiladi. Ushbu o'quvchilarning yakuniy ballari o'quv yilida (choraklar davomida) olgan baholaridan kelib chiqqan holda qo'yiladi. Mazkur masalalar matabning pedagogik kengashida ko'rib chiqilib, muhokama etilgan bo'lishi lozim.

**Bosqichli nazorat imtihoni materiallari** har bir sinf uchun alohida (10 talik fayl) bo'lishi kerak. Bunda o'quvchilar (ozod etilgan o'quvchilar alohida) ro'yxati; imtihon biletlari 11 ta (amaliy mashg'ulot biletlari og'il va qiz bolalar uchun 5 tadan, nazariy savollar 1 ta) muhirlangan konvertda bo'lishi; imtihon dalolatnomasi (muhirlangan konvertlar o'quvchilar tomonidan tortilib, ochilganligi hususida), bayonnomma (o'quvchilar amaliy va nazari qismlardan erishgan me'yor natijalari hamda ballari qayd etib borish uchun) bo'lishi lozim.

Amaliy va nazariy qism bir kunda o'tkazilishi, konvertlari imtihon kuni ochilishi hamda dalolatnoma, bayonnomalar imtihon jarayonida to'ldirib borilishi shart.

**Bosqichli nazorat imtihonining nazariy qismini o'tkazish tartibi.** Nazariy qism oldindan tayyorlab qo'yilgan sinf xonasida o'tkaziladi. Bunda nazariy qism konverti ixtiyoriy biror-bir o'quvchi tomonidan ochiladi. Har bir o'quvchi nazariy qism uchun tayyorlab qo'yilgan 25 ta savol biletlaridan bittasini tortadi hamda og'zaki javob beradi.

**Bosqichli nazorat imtihonining amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish tartibi.** Bosqichli nazorat imtihonining amaliy qismini topshirish uchun sinf ikki guruhga, ya'ni o'g'il va qiz bolalarga bo'linadi. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi (5 ta) konvertlardan birini tortadi. Shu tortilgan konvertdagi bilet bo'yicha o'z guruh a'zolari bilan ko'rsatilgan tartibda birin-ketin topshiradi. Qolgan konvertlar ochilmaydi.

#### **Amaliy imtihon sinovlarni qabul qilish metodikasi:**

**60 metrga yugurish.** 60 metr masofaga yugurish yo'lakchasi tekis va qoplamlali bo'lishi kerak. Start, marra va yo'lakcha chiziqlari aniq chizilgan hamda masofa to'g'ri o'lchalgan bo'lishi lozim. Yugurish past startdan amalga oshiriladi. Natija 0,1 soniyagacha aniqlanadi.

**1000 metrga yugurish.** Yugurish tekis maydonda olib boriladi. Yugurish vaqtida to'g'ri nafas olib chiqarish va yugurish qoida texnikasiga ahamiyat qaratiladi. Yugurish yuqori startdan amalga oshiriladi. Vaqt 1 soniyagacha aniq o'lchanadi.

**4x10 metrga mokisimon yugurish.** Yugurish ikki tomonidan chizilgan, 10 metrli masofa yo'lakcha ichida bajariladi. Yugurish yuqori startdan amalga oshiriladi. Yugurish jarayonida burulishlarda oyoq uchlari chiziqdan o'tgan holda bajarilishi lozim.

**Turgan joyidan uzunlikka sakrash.** Sakrash chizig'i yoniga kelib, qo'llarni oldinga-yuqoriga siltab, ikki oyoqda oldinga depsinib sakraydi. Uch urinishdan eng yaxshi natijasi hisobga olinadi. Natija start chiziqidan sakrab tushgan joygacha oyoq tovon orqasidan aniq 1smgacha o'lchanadi.

**Arg'amchida sakrash.** Arg'amchini 1 daqiqa davomida ikki oyoqda sakrash orqali bajariladi. Sakrash jarayonida oyoq hamda boshqa tana a'zolari tegib sakrash majbur to'xtab qolsa, imtihon topshiruvchi vaqt tugagunga qadar hisobni davom ettiradi. Umumiy sakrash hisobi bayonnomaga yoziladi.

**Baland turnikda osilib tortilish.** Qo'llar to'g'ri osilib turgan holatdan (oyoqlar yerga tegmaydi) iyakni to'g'risigacha tortiladi. Qo'l tirsaklari to'liq uzatilgan holda gavda yana pastga tushiriladi. Osilib tortilishda, gavda har tomonlarga harakatlanishi, oyoqlarni bukib ko'tarib tortilishlar hamda iyakgacha bajarilmaganlari hisobga kirmaydi. To'g'ri tortilishlar soni bayonnomaga yoziladi.

**Yotgan holatda gavdani ko'tarish.** D.h – chalqancha yotish (gimnastika matida) – oyoqlar uzatilgan, qo'llar bosh orqasida, barmoqlar bir-biriga qulf qilingan holatida. Yordamchi o'quvchi imtihon topshiruvchining oyoq yuzasini polga bosib turadi. Imtihon topshiruvchi bir tekis ko'tarilib tizzaga qo'l bilaklarini tekkazadi. Orqaga harakatlanib qaytishda gimnastika matiga yelkalar to'liq tegishi lozim. 1 daqiqa davomida ko'tarilish hisobi natijalari bayonnomaga yoziladi.

**Yakkacho'p ustida muvozanatni saqlash ("qaldirg'och" turish).** O'quvchi asosiy turish holatidan qisqa qadam oldinga tashlaydi (orqadagi oyoq uchida turadi), oldinga engashib, engashgan holatni saqlagan tarzda muvozanatni saqlab turish. Orqada turgan oyoq imkonni boricha orqaga ko'proq ko'tarish. Qo'llar yonda yoki oldinga-yonga, yoki bir qo'l oldinga-yuqoriga, boshqasi yonga holatlarida amalga oshiriladi. Mashqni birinchi bir oyoqda, keyin ikkinchi oyoqni almashtirib bajariladi. Mashqni bajarilish texnikasini e'tiborga olgan holda, talab etilgan me'yor bo'yicha baholanadi va bayonnomaga yoziladi. Yakkacho'p ustida oyoq uchida qo'llar yonda muvozanat saqlab yurish, oyoq uchida ko'tarilib burulishlar, o'ng (chap) oyoqlarda "qaldirg'och" hosil qilish, oyoqlarni kerib orqaga sultanish bilan kerishib sakrab tushish.

**Basketbol.** Imtihon topshiruvchi to'pni ko'krakdan halqaga shitdan 3,5 metr uzoqlikdan tashlaydi. 8 imkoniyatdan aniq tushirilgan to'plar soni hisobga olinadi.

**Voleybol.** Imtihon topshiruvchi devordan 2,5 metr uzoqlikdan turib, to'pni yerga tushirib yubormagan holda ikki qo'lda bosh ustidan to'pni devorga uloqtiradi va qabul qiladi.

**Qo'l to'pi.** Imtihon topshiruvchi to'pni yerga urib olib yurishni yugurish yo'lakchasi ichida bajaradi. To'pni yerga urib olib yurish 15 metr masofagacha bajarilib, texnikasiga ahamiyat qaratiladi.

**Futbol.** To'p bilan janglyorlik qilish oyoqning uchi va tizzalar bilan amalga oshirish mumkin. To'p bilan janglyorlik qilishni o'quvchi 3 urunishda bajarib

ko'rsatadi, shundan eng yaxshi bajarilgani erishgani hisobga olinadi va bayonnomaga yoziladi.

**Bosqichli nazorat imtihoni bo'yicha o'quvchilarni baholash.**  
O'quvchilarni amaliy sinov mashg'ulotlari bo'yicha baholashda erishgan me'yorlariga ko'ra baholanadi. Nazariy qism bo'yicha tortilgan savolga aniq javoblari hamda jismoniy tarbiya va sportga bog'liqlik asosida bergen ma'lumotlariga ko'ra baholanadi. O'quvchining har bir amaliy mashg'ulotidan va nazariy savolga bergen javoblari 5 ballik tizim asosida baholanadi. Ballar umumlashtirilib o'rtacha baho chiqariladi. Masalan:  $5+4+4+4+4=21:5=4.2$  yaxlitlangan holda 4 baho qo'yiladi.

## 1. Bosqichli nazorat imtihon dalolatnomasini to'ldirish namunasi.

### D A L O L A T N O M A

Tuzildi ushbu dalolatnoma, shu haqdakim 2017 yil "—" may kuni \_\_\_\_\_ matabning 4—"—" sinf o'quvchilari tomonidan bosqichli nazorat imtihon konvertlari ochildi.

Biz kim dalolatnoma tuzuvchilar: imtihoni hay'ati raisi \_\_\_\_\_ (F.I.), imtihon oluvchi o'qituvchi \_\_\_\_\_ (F.I.), imtihon assisenti \_\_\_\_\_ (F.I.) lar nazorati ostida amalga oshirildi. Sinf o'quvchilaridan \_\_\_\_\_ nafari ishtirok etdi.

Amaliy:

O'g'il bolalardan \_\_\_\_\_ (F.I.) Bilet № \_\_\_\_\_ (imzo)  
Qiz bolalardan \_\_\_\_\_ (F.I.) Bilet № \_\_\_\_\_ (imzo) tortildi.

Nazariy: \_\_\_\_\_ (F.I.) \_\_\_\_\_ (imzo) tomonidan ochildi.

Imtihon hay'ati raisi: \_\_\_\_\_ (F.I.) \_\_\_\_\_ (imzo)

Imtihon oluvchi o'qituvchi: \_\_\_\_\_ (F.I.) \_\_\_\_\_ (imzo) M.O'.

Imtihon assistenti: \_\_\_\_\_ (F.I.) \_\_\_\_\_ (imzo)

## 2. Bosqichli nazorat imtihon bayonnomasini to'ldirish namunasi.

2017 yil \_\_\_\_\_ -may №\_\_\_\_\_ umumiyl o'rta ta'lim maktabi  
4 - "—" sinf (o'g'il, qiz bolalar) Bilet №\_\_\_\_\_

### B A Y O N N O M A S I

№	<b>O'quvchilarn ing F. I.</b>	60 m yugurish		Gimnastik a		Basketbol		Turgan joydan uzunlikka sarash		Nazariy		Umum iy ball	
		natija	ball	natija	ball	natija	ball	natija	ball	Bilet №	ball		
1.	Tohirova	10,5	5	-	4	2	4	140	4	15	4		4

	<u>O'ktam</u>										
2.											
3.											

Imtihon hay'ati raisi: \_\_\_\_\_ (*F.I.*) \_\_\_\_\_ (*imzo*)  
 Imtihon oluvchi o'qituvchi: \_\_\_\_\_ (*F.I.*) \_\_\_\_\_ (*imzo*)  
 Imtihon assistenti: \_\_\_\_\_ (*F.I.*) \_\_\_\_\_ (*imzo*)

M.O‘. “\_\_\_” 2017 yil

#### Nazariy savollarga berilgan javoblarni baholash mezoni

T/r	Baholash mezoni	Ball
1.	Javob mazmunan to‘g‘ri, to‘liq ochib berilib, ma’lumotlarni aniq ifodalasa.	5
2.	Javob mazmunan to‘g‘ri, to‘liq ochib berilib, lekin ma’lumotlarda 2 tagacha xatoliklarga yo‘l qo‘ysa.	4
3.	Javob mazmunan to‘g‘ri, lekin to‘liq ochib berilmasa, ma’lumotlarda 4 tagacha xatoliklarga yo‘l qo‘ysa.	3
4.	Javob noto‘gri, noaniq, berilsa, ma’lumotlarda 5 va undan ortiq xatolar bo‘lsa.	2

#### Amaliy mashg‘ulotlarni baholash mezoni

T/r	Baholash mezoni	Ball
1.	Mashq elementlarini texnik xatosiz, belgilangan vaqt me'yorida, erkin, ishonchli bajarsa.	5
2.	Mashq elementlarini texnik xatosiz lekin belgilangan vaqt me'yoridan oshib ketsa, mashqni bajarishda 2 tagacha xatoliklarga yo‘l qo‘ysa.	4
3.	Mashq elementlarini bajarishda texnik xatoga yo‘l qo‘ysa, vaqt me'yoridan oshib ketsa, mashqni bajarishda 4 tagacha xatoliklarga yo‘l qo‘ysa.	3
4.	Mashq elementlarini bajarishda texnik xato, vaqt me'yorlariga amal qilmasa, mashqni bajarishda 5 va undan ortiq xatoliklarga yo‘l qo‘ysa.	2

#### Nazariy savollar

1. O‘quvchining shaxsiy gigiyenasi va kun tartibini aytib bering.
2. O‘zbekistonda 10 ta ommaviy sport turlarini aytib bering.
3. “O‘zbekiston iftixorlari” fahriy unvoniga sazovor bo‘lgan 10 nafar sportchilarni sanab, sport turlarini aytib bering.
4. Chiniqish nima va uning turlari haqida aytib bering?
5. Qo‘l to‘pi o‘yini maydoni, o‘yinchilar soni, darvoza o‘lchami, to‘p og‘irligi va aylanasi haqida aytib bering.

6. Yengil atletika va uning turlarini bilasizmi?
7. Sport o‘yinlarining turlari haqida aytib bering?
8. Gimnastika mashqlarini bajarishda qanday sport anjomlaridan foydalaniladi?
9. Yurish va yugurish nimasi bilan farq qiladi?
10. Kross va marafon nimasi bilan farq qiladi?
11. Saf deb nimaga aytildi va saf mashqlariga nimalar kiradi?
12. Yurish va yugurishga ta’rif bering.
13. 2016 yilgi Olimpiada o‘yinlarida sovrindor bo‘lgan O‘zbekistonlik sportchilar haqida ma’lumot bering.
14. Arg‘amchida sakrash mashqini bajarganda qanday jismoniy sifatlar rivojlanadi?
15. Voleybol o‘yini qachon va qayerdan kelib chiqgan?
16. Akrobatika mashqlari qanday sifatarni rivojlantiradi?
17. Gimnastika va uning turlarini aytib bering.
18. Jismoniy mashqlarni bajarishda to‘g‘ri nafas olishning usullarini aytib bering.
19. Futbol o‘yini qachon va qayerdan kelib chiqgan?
20. Olimpiada o‘yinlari haqida aytib bering?
21. “Umid nihollari” sport musobaqasi haqida tushuncha bering.
22. Jismoniy sifatlarga ta’rif bering.
23. Sport o‘yinlari (voleybol, basketbol, qo‘l to‘pi) va ularning farqlari nimada?
24. O‘quvchining shaxsiy va jamoat gigiyenasini aytib bering.
25. Mashg‘ulot jarayonida shikastlanishning oldini olish va birinchi yordam ko‘rsatish qanday amalga oshiriladi.

### **Amaliy sinov – mashg‘ulot**

**(qiz bolalar uchun)**

#### **1–bilet**

(Me'yordagi birinchi raqam "5" baho, ikkinchi raqam "4" baho, uchinchi raqam "3" baho, to‘rtinchi raqam "2" bahodan iborat)

**1.Yengil atletika.** 30 metrga yugurish.

**Me’yor:** (sek) 5.3-6.0-6.5-6.8

**2. Gimnastika.** Arg‘amchida 1 daqiqa davomida sakrash.

**Me’yor:** (marta) 70-60-50-40

**3. Qo‘l to‘pi.** To‘pni yerga urib olib yurish, 15 metrga yugurish texnikasini bajarish.

**Me’yor:** (Texnikaga e’tibor berish)

**4. Yengil atletika.** Yugurib kelib balandlikka sakrash.

**Me’yor:** (sm) 90-80-70-60

#### **2 – bilet**

**1.Yengil atletika.** 60 metrga yugurish.

**Me’yor:** (sek) 10.8-11.3-11.8-12.0

**2. Gimnastika.** Oldinga, orqaga ikki martadan umbaloq oshish. “Ko‘prik” hosil qilish.

**Me’yor:** (Texnikaga e’tibor berish)

**3. Basketbol.** To‘pni ko‘krakdan halqaga (3,5 metrdan) tashlash 10 imkoniyatdan.

**Me'yor:** (aniq otilgan to‘plar soni/marta) 3-2-1

**4. Yengil atletika.** Yugurib kelib tennis koptogini uzoqqa uloqtirish.

**Me'yor:** (metr) 18-15-13-10

### **3 – bilet**

**1. Yengil atletika.** 4x10 metrga mokisimon yugurish.

**Me'yor:** (sek) 11.5-12.0-12.5-13.0

**2. Gimnastika.** Gimnastika o‘rindig‘iga tayangan holda qo‘llarni bukib yozish.

**Me'yor:** (marta) 5-4-3-2

**3. Voleybol.** Voleybol to‘pini ikki qo‘lda devorga uloqtirib, qaytayotgan to‘pni ikki qo‘llab yuqoridan qaytarish.

**Me'yor:** (Texnikaga e’tibor berish)

**4. Yengil atletika.** Yugurib kelib uzunlikka sakrash.

**Me'yor:** (sm) 260-230-200-170

### **4 – bilet**

**1. Yengil atletika.** Yugurib kelib uzunlikka sakrash.

**Me'yor:** (sm) 260-230-200-170

**2. Gimnastika.** Yakkacho‘p ustida qo‘llarni turli holatlarda harakatlantirib va oyoq tagidan qarsak chalib yurish. “Qaldirg‘och” hosil qilish.

**Me'yor:** (Texnikaga e’tibor berish)

**3. Voleybol.** Voleybol to‘pini ikki qo‘lda devorga uloqtirib, qaytayotgan to‘pni ikki qo‘llab yuqoridan qaytarish.

**Me'yor:** (Texnikaga e’tibor berish)

**4. Yengil atletika.** 1000 metrga yugurish.

**Me'yor:** (min) 5.30-6.00-6.30-7.00

### **5 – bilet**

**1. Yengil atletika.** Turgan joydan uzunlikka sakrash.

**Me'yor:** (sm) 140-120-100-80

**2. Gimnastika.** Gardishni 1 daqiqagacha belda aylantirish.

**Me'yor:** (marta) 55-45-30-20

**3. Basketbol.** Basketbol to‘pini yo‘nalishini o‘zgartirib 30 m (2 x 15) olib yurish (Ilon izi).

**Me'yor:** (Texnikaga e’tibor berish)

**4. Yengil atletika.** 4x10 ga mokisimon yugurish.

**Me'yor:** (sek) 11.5-12.0-12.5-13.0

### **(O‘g‘il bolalar uchun)**

#### **1-bilet**

**1. Yengil atletika.** Yugurib kelib tennis koptogini uzoqqa uloqtirish.

**Me'yor:** (metr) 30-27-23

**2. Gimnastika.** Baland turnikda tortilish.

**Me'yor:** (marta) 4-3-2

**3. Futbol.** Futbol to‘pini yo‘nalishini o‘zgartirib 30 m (2 x 15) olib yurish.

**Me'yor:** (Texnikaga e'tibor berish)

**4. Yengil atletika.** 60 metrga yugurish.

**Me'yor:** (sek) 10.5-11.0-11.5-12.0

## **2-bilet**

**1. Yengil atletika.** Turgan joydan uzunlikka sakrash.

**Me'yor:** (sm) 160-140-120-100

**2. Gimnastika.** Arg'amchida 1 daqiqa davomida sakrash.

**Me'yor:** (marta) 60-50-40-30

**3. Qo'l to'pi.** To'pni yerga urib olib yurish, 15 metrga yururish texnikasini bajarish.

**Me'yor:** (Texnikaga e'tibor berish)

**4. Yengil atletika.** 1000 metrga yugurish.

**Me'yor:** (min) 5.00-5.30-6.00-6.30

## **3-bilet**

**1. Yengil atletika.** 60 metrga yugurish.

**Me'yor:** (sek) 10.5-11.0-11.5-12.0

**2. Gimnastika.** Oldinga, orqaga ikki martadan umboloq oshish. "Ko'prik" hosil qilish.

**Me'yor:** (Texnikaga e'tibor berish)

**3. Basketbol.** To'pni ko'krakdan halqaga (3,5 metrdan) tashlash 7 imkoniyatdan.

**Me'yor:** (marta) 3-2-1

**4. Yengil atletika.** Yugurib kelib tennis koptogini uzoqqa uloqtirish.

**Me'yor:** (metr) 30-27-23-20

## **4-bilet**

**1. Yengil atletika.** Yugurib kelib uzunlikka sakrash.

**Me'yor:** (sm) 300-250-200-180

**2. Gimnastika.** Polga qo'llar bilan tayangan holda qo'lni bukish va yozish.

**Me'yor:** (marta) 10-8-6-4

**3. Futbol.** Futbol to'pida jangliyor qilish.

**Me'yor:** (marta) 5-4-3-1

**4. Yengil atletika.** 4x10 metrga mokisimon yugurish.

**Me'yor:** (sm) 11.0-11.5-12.0-12.5

## **5-bilet**

**1. Yengil atletika.** Yugurib kelib balandlikka sakrash.

**Me'yor:** (sm) 100-90-80-70

**2. Gimnastika.** Qo'llar bosh orqasida, chalqancha yotgan holda, 1 daqiqa davomida gavdani ko'tarib o'tirish.

**Me'yor:** (marta) 15-13-8-5

**3. Voleybol.** Voleybol to'pini ikki qo'lda devorga uloqtirib, qaytayotgan to'pni ikki qo'llab qaytarish.

**Me'yor:** (marta) 10-8-5-2

**4. Yengil atletika.** 1000 metrga yugurish.

Me'yor: (min) 5.00-5.30-6.00-6.30